



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Xujamoa Laylo Elta qizi

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim 2-kurs talabasi 27-
maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tishning afzalliklari, ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, innovatsion texnologiya, maktab, dars, jarayon, o'qituvchi.

Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nan eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revoliutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb - hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yul oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir. O'quvchilarga bilim berishda samarali qo'llansa bo'ladigan interfaol uslublar, didaktik o'yinlar, o'quvchilarga mos metodlar, ta'limiy mashqlardan kiritilgan. Bu o'yin mashqlaridan darslarda ta'limiy musobaqa tarzida ham foydalansa bo'ladi va ular 25-35 o'quvchiga mo'ljallangan. Bevosita, o'zim ish faoliyatimda yaratgan innovatsion g'oyalarimdan ham namunalar keltirganman. O'quvchilarga darslarda singdirilgan kompetensiyaviy yondashuvlar, ular hayotida, albatta, asqotadi degan umiddaman. Xullas, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim sifatini oshirishda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim sifat samaradorligini oshirishda bu maqola yaxshi xizmat qila oladi, deb o'ylayman. Zero, bugungi kunda o'qituvchining qilayotgan mehnati, albatta, ertaga o'z samarasini beradi.

«Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ni amalga oshirishda inovatsion pedagogik texnologiyalar. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi. bo'lajak o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariy asoslari bilimlari bilan qurollantirish; yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo'lishlari; zamonaviy pedagogik texnologiyalar, g'oyalar



maktablar, yo'nalishlar, keng turlarida yo'l topa bilish mahorati; pedagogik faoliyatni ijodiy va metodik to'g'ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish; mustaqil ishlash, mustaqil bilim olish, o'zini tarbiyalash va o'zini mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faollashtirishning umumiy tavsifi innovatsion pedagogika: predmeti, ob'ekti, vazifalari, tadbiq qilinadigan sohalari.

"Innovatsiya" so'zi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, uning tarjimasi "yangilanish", "o'zgartirish", "yangilik kiritish" degan ma'noni bildiradi. Innovatsiya tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Pedagogik yangilik esa pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariy va amaliy jihatini boyitish va uni rivojlantirish vositasidir. Bundan anglashiniladiki, innovatsion jarayon yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Demak innovatsiya innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o'qituvchini o'zigagina taalluqli bo'lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, omma, institutsion mashtabda ham bo'lishi mumkin.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga o'siriladi. O'qitish jaroyoni hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga o'ladi. O'qituvchining faoliyatini o'quv materilani bayon qilish, o'quvchilarning fantastik bo'lgan qiziqishini o'rtirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchiga chinakgam ehtiros bo'ladi.

O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda "Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart - sharoitlar yaratadi", deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda: "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv - uslubiy majmualarini yaratish va o'quv - tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash" umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi.



Boshlang'ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim mazmunida o'ziga xos hamda o'quvchi shaxsida o'ziga xos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ilm mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson qilib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma-xil shakllari o'qitishning takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Darslarni "Qochib ketgan sonlar" metodi, "Teskari sanoq", "Keyingi sonni top", "Yaqin va uzoq", "Ovalni top", "Shaklni top", "Postlar qo'yish", "Harakatlarni o'zgartirish", "Swot" tahlili metodi, "FSMU" kabi metodlardan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bo'shlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tishning avzalligi shundaki, endigina maktabga qadam qo'ygan bo'lalarda ta'lim olishga qiziqish uyog'otishda hamda ta'lim jaroyonida yo'sh o'quvchilarni zeriktirmasdan. mavzuni turli oyinlar yordamida noodatiy tashkil qilish ta'lim berishning sifatini ancha yaxshilaydi. O'quvchilarning yo'sh toifalarni hisobga o'lgan holda, o'tiliyotgan dars va mavzuga mos keladigan innovatsion 26 texnologiyalarni tog'ri tanlab, undan samarali foydalanish pedagogning mahoratiga bog'liqdir. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, talim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'qituvchilik kasbimni tanlaganimdan minnatdorman. Bu kasb nafaqat o'z bilimlarimni boshqalar bilan bo'lishish, balki o'z hayotimni ma'naviy jihatdan boyitish imkonini berdi. Har bir darsda o'quvchilarim bilan yangi g'oyalarni, bilimlarni o'rganish jarayoni menga qoniqish beradi.

O'qituvchilik, shuningdek, kreativlik va innovatsiyani talab qiladi. O'quvchilarimni o'zlarining qobiliyatlarini ochish va rivojlantirishga rag'batlantirish, ularning o'sishiga guvoh bo'lish juda qadrlil. Har bir muvaffaqiyatli dars, har bir yangi tushunchani o'zlashtirish, o'quvchilarimning kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu kasb menga o'z-o'zimi rivojlantirish imkonini berdi. O'qituvchilik jarayonida doimo o'rganayotganimni, yangi bilimlarga ega bo'lishni his qilaman. O'quvchilarimdan ko'p narsa o'rganaman va bu, o'z navbatida, meni yanada yaxshi o'qituvchi bo'lishimga yordam beradi.

Shuningdek, o'qituvchilik kasbi ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarimga nafaqat akademik bilimlar, balki axloqiy qadriyatlar va hayotiy ko'nikmalarni ham o'rgatish men uchun muhimdir. Ularning muvaffaqiyati, baxti va kelajagi men uchun katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, o'qituvchilik kasbimni tanlaganimdan minnatdorman, chunki bu nafaqat ish, balki hayotimning maqsadi va mazmunidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A. va boshqalar. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" 2008 y.
2. Azizxodjayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" O'quv qo'llanma Toshkent, 2006 y.
3. T. G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" "Tafakkur nashriyoti" -2011
4. J.G` Yo'ldoshev "Pedagogik texnologiya asoslari" T., O`qituvchi, 2004.
4. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006